

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 8 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*  
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ..... 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО  
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ..... 18-24
- Раунов Холмамат*  
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ..... 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*  
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ  
МИСОЛИДА) ..... 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*  
FERMER HO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI  
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI  
MISOLIDA) ..... 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*  
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР  
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ..... 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*  
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI  
XIZMATLARI ..... 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*  
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ..... 60-64

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*  
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF  
ENTERPRISES ..... 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*  
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ..... 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*  
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ  
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR .....	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI .....	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ .....	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ .....	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI .....	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ .....	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ .....	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ .....	165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ЙЎЛЛАРИ ..... 175-181

*Бекжанов Дилмурод Йўлдашович*  
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН  
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ..... 182-193

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Boydadayev Abdurroхmon Tolibjon o'g'li*  
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY  
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ..... 194-200

*Xayridinov Abbasxon Anvarovich*  
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA  
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*  
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ..... 206-211

*Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich*  
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR  
MAQSADI..... 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*  
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA  
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ..... 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*  
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ  
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ..... 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*  
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ..... 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*  
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ..... 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*  
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ ..... 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ..... 252-257

## **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Soatova Nodira Isomitdinovna*

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI ..... 258-265

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA ..... 266-269

*Yusupova Omina Muhammadzoir kizi*

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE ..... 270-276

*Бозорова Хулкар Одинакуловна*

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ..... 277-282

*Matyakubov Oybek Quralbayevich*

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI ..... 283-288

*Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ ..... 289-293

*Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI ..... 294-299

*Xamzayev Otaxon Erkinovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI ..... 300-305

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Абдурахманова Нодирахон*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ ..... 306-310

*Сафоева Садокат Мусоевна*

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА ..... 311-320

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ..... 321-330

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Zoirova Lola Xamidovna*

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN



FOYDALANISH .....	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) .....	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH .....	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS .....	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ .....	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .....	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI .....	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR .....	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI .....	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS .....	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI .....	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD .....	434-441
<i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR .....	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSIONAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH .....	461-469

*10.00.00-Филология фанлари*

**Хамзаев Отахон Эрkinovich**  
Termez davlat universiteti, Ingliz tili  
va adabiyoti kafedrası o'qıtuvchısı  
E-mail: [hamzayevotaxon@gmail.com](mailto:hamzayevotaxon@gmail.com)

### **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilining leksik fondidagi ba'zi kasb-hunarga oid leksikalar chog'ishtirma tahlil qilingan. Shu qatorida kasb-hunarga oid so'zlarning lisoniy milliy-madaniy, xususiyatlari hamda ularning xalq maqollaridagi ma'no-mazmuni tahlil qilingan hamda maqollarning o'xshash va farqli tomonlari misollar asosida dalillangan.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunarga oid leksikalar, kasb-hunarga oid so'zlarning lisoniy milliy- madaniy, xususiyatlari, maqollarning lingvomadaniy jihatlari, maqol, muallim, pardozi.

**Хамзаев Отахон Эрkinovich**  
teacher of the department of English Language  
and Literature, Termez State University

### **COMPARATIVE ANALYSIS OF PROVERBS CONCERNING PROFESSIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**Abstract.** This article analyzes of some professional lexicons in the lexical fund of the English and Uzbek languages are cross-analyzed. In addition, the linguistic, national and cultural characteristics of the words related to the profession and their meaning in folk proverbs were analyzed, and the similarities and differences of the proverbs were proved on the basis of examples.

**Keywords:** Vocational lexicons, linguistic, national and cultural features of vocational words, linguistic and cultural aspects of proverbs, proverb, teacher, hairdresser.

**Хамзаев Отахон Эрkinovich**  
Преподаватель кафедры Английского языка и литературы,  
Термезский государственный университет

### **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ КАСАЮЩИХСЯ ПРОФЕССИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**Аннотация.** В данной статье проводится перекрестный анализ некоторых профессиональных лексиконов в лексическом фонде английского и узбекского языков. Кроме того, были проанализированы языковые, национально-культурные особенности слов, относящихся к профессии, и их значение в народных пословицах, а также на примерах доказаны сходства и различия пословиц.

**Ключевые слова:** профессиональная лексика, языковые, национально-культурные особенности профессиональных слов, лингвокультурологические аспекты пословиц, пословица, учитель, парикмахер.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N43>

**Kirish.** Hozirgi davrda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganish hamda ularning o'ziga xos jihatlarini o'zbek tilining individual xususiyatlari bilan qiyoslash masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada ingliz tilidagi kasb-hunarga oid maqollarni o'zbek tilidagi sohaga oid maqollar bilan qiyoslash hamda ularning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etuvchi tadqiqot mavzularidan hisoblanadi. Shu boisdan ham dunyoda hikmat durdonalarini yaratmagan, ularni asrlar osha ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, sayqal berib, dilida, tilida saqlab avloddan-avlodlarga meros qilib qoldirmaydigan xalq bo'lmasa kerak.

Shu boisdan ham turli xalqlar ularni turlicha ta'riflaydilar. Sharq xalqlari maqolni "so'z san'atining guli", inglizlar maqollarni "Proverbs are the wisdom of the streets", yunonlar va rimliklar "fikrlar xukmdori", italyanlar "xalqning maktabi", ispanlar "qalb shifokori", nemislar "xalq donoligi" deb ataganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Paremalar ajdodlardan avlodlarga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti ham hisoblanadi. Sababi paremalarning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi. Shu bilan birga paremalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir. Paremiologiya ana shu ikki jihatni o'zida birlashtiradi.

Premalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma'no xususiyatlarini o'rganuvchi paremiologiya bo'limi frazeologiya bilan chambarchas bog'liq. Paremiologiya tilda mavjud bo'lgan turli xil iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro farqlanadi, o'rganish obyektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirish ular o'rtasidagi o'xshash, umumiy tomoni hisoblanadi.

Tilshunos N.Uluqov "Tilshunoslik nazariyasi" nomli o'quv qo'llanmasida ta'kidlashicha: "paremiologiya tilshunoslikning bo'limlaridan biri bo'lib, tildagi barqaror birikmalar maqol, matal va aforizmlarni o'rganuvchi fan" deb, ta'kidlaydi.

XX asrning 90-yillarida B.Sarimsoqov aforizm, maqol matal, topishmoq, qanotli so'zlar va iboralarni kabilarni paremiologik birlik deb, nomlaydi.

Ingliz tilining mashhur "Encyclopedia Free Dictionary Online" lug'atida berilishicha: Paremiologiya (yunoncha παροιμία paroimía, "maqol va aforizm" – birliklarini to'plovchi, o'rganuvchi lingvistikaning bo'limidir.

Bizga ma'lumki, maqollar hali yozuv paydo bo'lmasdan oldin xalq og'zaki ijodiga muhrlangan va jamiyat ongining bir qismiga aylangan. Yozuv paydo bo'lgandan so'nggina u madaniy yodgorliklarda o'z aksini topa boshlagan.

Eng qadimgi maqollar namunasi Yevropada Aristotelga tegishli bo'lib (er.avv IV-III asrlar), ular antik davrdagi shoir va faylasuflarning hikmatli iboralari edi.

Turkologiyada kasb-hunarga oid maqollar va atamalarni o'rganish masalasi uzoq tarixga borib taqaladi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida bu borada ma'lumot beruvchi qimmatli mulohazalar mavjud. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida ham tadqiq qilinayotgan mavzu bo'yicha muhim ma'lumotlar berilganligini qayd etib o'tish joiz.

Qadimda turkiy xalqlar adabiyotida maqol janrini anglatuvchi “caw” atamasi va “otalar so‘zi” birikmasi qo‘llanilgan. Tilshunos va etnograf, sayyox va folklorshunos olim Mahmud Qoshgariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “caw” so‘zi “otalar so‘zi” deb berilgan.

Bilamizki, turkiy xalqlarga doir yozma yodgorliklarning yaratilish davri V- VIII asrlarga tog‘ri keladi. Xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari esa yozuv paydo bo‘lgunga qadar yaratilgan. Bu esa maqol janri V- VIII asrlardan ilgari ham turkiy xalqlarda “otalar so‘zi” shaklida islomgacha iste’molda bo‘lgan degan xulosani beradi.

Turkiy xalqlar orasida “maqol” so‘zi o‘rniga “masal” qo‘llanganining guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy g‘azallarida Masaldurkim, uyqu — o‘limdur kabi shaklda uchrasa, maqol qo‘llash asosiga ko‘rilgan badiiy san‘at “irsolu masal” deb nomlangan.

O‘rta asrlarda Xorazm zaminida tavallud topgan alloma Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy o‘zining “**Nozik iboralar**” risolasida: “Ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini bilmaganidek”, – deb yozadi. Bir qarashda, bu fikr ilk eshitgan kishining aqlini shoshiradi. Alloma aytgan **hikmat**ning lazzati esa o‘sha gul hidiga yashiringan. Ezgu tuyg‘ular **hikmat**ga aylanadi. Ertasiga tinglovchi tumovdan tuzalib, albatta o‘sha gulni yana bir bor hidlab ko‘rishiga umid bor deyiladi.

Maqollarni to‘plash va ular ustida tadqiqot olib borish Angliyada diniy qarashlar rivojlanishi natijasida bir qator pand-nasihat mazmunidagi asarlar vujudga keldi. Shunday asarlardan biri X–XI asrlarda yaratilgan eng qadimgi ingliz maqol- matallarining yozma to‘plami hisoblangan “Proverbs of Alfred” dir.

Zamonaviy olimlarimizdan T. Mirzayev, A.Musoqulov, V.Sarimsoqovlar tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek xalq maqollari” da esa kasb-hunarga oid ko‘plab maqollar keltirilgan.

G‘arbda esa kasb-hunarga oid atamalarning tilshunoslik tahlili masalasi bilan John Ray shug‘ullangan.

Ingliz va o‘zbek tillarida kasb-hunarga oid maqollarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasi uchun qo‘llaniladigan germeneytika, analiz, sintez, taqqoslash kabi metodlaridan foydalanilgan.

**Muhokama.** Kasb so‘zining lug‘aviy ma‘nosini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Ish-faoliyatning ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi, hunar: Bu kishi o‘zlari hosilot, kasblari agronom, kechki maktabda muallimlik ham qiladilar;
2. Umuman, odat qilingan ish; odat. Molning tilini bilish ham o‘ziga yarasha kasb ekan (O‘lmas Umarbekov, Shonli avlod) [5; B.328.].

Hunar asli arabcha so‘z bo‘lib, san‘at; bilim, ko‘nikma, mahorat, ustalik; kasb kabi ma‘nolarni anglatadi. Hunar so‘zining o‘zbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan bo‘lib, asli “layoqat”, “san‘at” ma‘nolarini anglatadi. Keyinchalik kasb ma‘nosini ham anglata boshlagan [7; B.197.].

Hunar so‘zi eski o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma‘nolarda ishlatilgan:

Hunar, ish, yaxshi ish, hammaga ma‘qul ish.

Mahorat, mohirlik.

Eski o‘zbek adabiy tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida hunar asosidan yasalgan hunarvar, hunariy, hunarkor, hunarmand, hunarparvar kabi so‘zlari ham iste’molda bo‘lgan [3; B.203.].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa hunar quyidagi ma‘nolarni anglatadi:

1. Muayyan ko‘nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg‘ulot; kasb. Hunar, hunardan unar.

2. Biror ishdagi mahorat, san'at; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti- harakat. Chekinish uchun ham hunar kerak. Bu ham san'at talab qiladi. (Oybek, Quyosh Qoraymas)

3. Odat tusidagi ish-harakat. Ammo eski hunaringizni qilib, otamga chaqsangiz, mendan shafqat kutmang! (Mirmuhsin, Me'mor)

4. Bo'lmag'ur, kelishmagan xatti-harakat, qiliq, odat. Abdushukur, ovozi bunchalik boshqacha qilishini kimdan o'rganding? Hunaringga balli-ye.. (Oybek, Tanlangan asarlar) [4; B.561-562.].

**A craft** is a pastime or an occupation that requires particular skills and knowledge of skilled work. In a historical sense, particularly the Middle Ages and earlier, the term is usually applied to people occupied in small scale production of goods, or their maintenance, for example by tinkers. The traditional term craftsman is nowadays often replaced by artisan and by craftsperson. [Hunarmandchilik–kasb bo'lib, u ma'lum mahorat va malakali ish bilimini talab qiladi.

Tarixiy ma'noda, xususan, o'rta asrlarda va undan oldingi davrda, bu atama odatda kichik hajmdagi tovarlar ishlab chiqarishda yoki ularni ta'mirlashda, masalan, ta'mirchilar tomonidan ishlaydigan odamlarga nisbatan qo'llaniladi. An'anaviy hunarmand atamasi hozirgi kunda ko'pincha hunarmand leksemasi bilan izohlanadi].

**Inglizcha** The more women look in their glass, the less they look their house” maqoli strukturasi ko'ra qo'shma gap hisoblanadi. Bu maqolning o'zbekcha variantlari Ayol husni pardozda emas, Pardozchini uyda ko'r, xotiningni to'yda ko'r. Bu bilan ko'cha-kuyda, ziyofatu-to'yda yasanib-tusanib, pardoz-andoz qilib yurgan xotin-qizlarni ko'rib, “Oh qanday go'zal, qanday ko'rkam, qanday chiroyli ekan-a!” deb, o'z xotiningdan ko'ngling sovib yurmasin. O'sha “Pardozchi”larni ham o'z uyida ko'rgin, bilasan aslida qanday ekanini, o'z xotining ham uychi kiyimda, pardoz-andoz qilmay yurganda senga ko'rimsiz bo'lib ko'rinadi.

Ammo uni ham kiyinib-taranib to'yga borganini ko'rsang, bilasan qanday go'zalligini degan ma'noda kelib, xotini qadrlash, izzat-hurmat qilishga da'vat etadilar. Pardozni pardoz buzgan degan maqol ham borki, bu bilan: Pardoz haddan tashqari bo'lsa, kishining asl husnini qaytaga buzib qo'yadi – ma'nosini ifodalaydi.

**Natijalar.** Ingliz xalq maqolida kasb-hunarga oid leksema ishtirok etmaganini ko'rishimiz mumkin. Biroq o'zbek xalq maqolida esa pardozchi kasb-hunarga oid so'z qo'llanilganini kuzatishimiz mumkin.

Ikki xalq maqolida turli xil leksemalar foydalanishiga qaramasdan maqollarning mazmun-mohiyati o'zaro o'xshash, ya'ni ikki etnos maqolida ham pardoz qilish haqida so'z borgan.

Inglizcha Jack is as good as his master maqoli o'zbek tilida “shogird ustozidek yaxshi” ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida Shogird ustozidan o'tmasa, kor yitar maqoli orqali ifodalanadi. Ingliz xalq maqolida foydalanilgan Jack leksemasi atoqli ot bo'lib, ingliz xalqining o'g'il bolalariga atab qo'yadigan ism hisoblanadi. Biz Jack leksemasi orqali bu maqol ingliz xalqi maqoli ekanligini bilib olishimiz mumkin. Maqolda Jack leksemasiga o'zbek tilidagi shogird so'zi ekvivalent bo'ladi. Jack va shogird so'zlari har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajarmaydigan so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ular o'ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir. Bu o'rinda xalq o'ziga xos va mos bo'lgan termindan foydalanadi. Shuning uchun ham maqolning o'zbekcha variantida shogird so'zi ishlatilgan. Agar maqollarning ma'no- mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ikki xalqda ham shogirdning ustozidan o'tishi haqida so'z borgan.

Inglizcha Many pupil has gained more wealth than his master [2; B.710.] maqoli o'zbek tilida “ko'p o'quvchilar ustozidan ko'ra ko'p boylikka ega bo'ladi” ma'nosini beradi. Yuqorida

keltirilgan ingliz xalq maqoliga nisbatan o'zbek tilida Ustozdan shogird o'zar maqoli ishlatiladi. Ingliz xalq maqolida wealth leksemasi ishtirok etgan wealth so'zining ma'nosi o'zbek tilida boylik degan ma'noni bildiradi. O'zbek xalq maqolida esa boylik leksemasi ishtirok etmagan. Ma'lumki, xalq turmush tarzida mavjud narsalar yoki kundalik yumushlar maqollar orqali ifodalanadi.

Ingliz xalq maqolida shogirdning kuchi boylik bilan o'lchanyapti. O'zbekcha maqolda esa shogirdni yuksak darajaga ko'tarib ishonch bildirilyapti. Biroq bu ikki tilda ifodalangan maqolning ma'no-mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir. Agar maqollarning ma'no-mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz xalq maqolida ham o'zbek xalq maqolida ham shogirdni ustozidan o'tishi haqida ta'kidlangan.

Inglizcha *The priest to his book, the peasant to his plough* [1; B.319.] maqoli o'zbek tilida "Kohin kitobiga boqar, dehqon shudgoriga" ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida Olim kitobni suyar, qassob – pichoqni [6; B.253.] maqoli orqali ifodalanadi. Bu o'rinda ikki xalq maqoli ham ma'no-mazmuni bilan o'zaro hamohang bo'lib ikki xalq maqolida ham book va kitob so'zlari ishtirok etgan hamda har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajaruvchi so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ular o'ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, ingliz va o'zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlar va ularda qo'llanilgan leksemalar bir xil emas. Bu holat ingliz va o'zbek xalqlarining tarixi, bir-biriga o'xshamagan mentaliteti, har xil moddiy va ma'naviy madaniyatlarga egaligi, an'anaviy xo'jaligi, turli dinlarga e'tiqod qilishi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg'ulari, urf-odatlarini o'zgachaligi bilan izohlanadi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.
2. A Dictionary of American Proverbs Wolfgang Mieder first published. –Oxford University Press, 1992. – 710 p.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1985. – 4-jild. – B. 203.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. –5-jild.– B. 561-562.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –2-jild.– B. 328.
6. O'zbek xalq maqollari /Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov – Toshkent: «Sharq», 2005. – 253 b.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati.– Toshkent: Universitet, 2003. 2-jild. – B. 197.
8. Темирова М.А.Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.
9. Uluqov N.Tilshunoslik nazariyasi.O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Barkamol fayz mediya", 2016. – B.12.
10. Саримсоқов Б. Адабий турлар ҳақида мулоҳазалар //Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 1993. № 5. – Б.3 –13.
11. Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан. 1963. – Б. 168-169
12. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик 1-том. - Тошкент: Фан, 1988.

13. Хусайний А Бадаиу- с-санойи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
14. Раимов А.ва Раимова Н. “Ҳикматлар шодаси” Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013. – В.4.
15. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/paremiologiya-uz>
16. <https://encyclopedia.the free dictionary.com/Paremiology>.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).